



Nematillo ABRIYEV,

Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

E-mail: nematilloabriyev9@gmail.com,

JizPI dotsenti E.A.Axmatovich taqrizi asosida

## FIZIKADAN MASALALAR YECHISH ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING AMALIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada fizikadan masalalar yechish orqali talabalarda fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish, masalalar yechishni ketma-ketlik, murakkablashib borish, izchillik va uzviylik tamoyillari asosida tashkil etish bo'yicha fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Fizika, masalalar yechish, kompetensiya, masalalar sistemasi, ijodiy qobiliyat, izchillik va uzviylik tamoyili, tajriba, integratsiya, ko'nikma, malaka, qobiliyat.

## РАЗВИТИЕ ПРАКТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ НА ОСНОВЕ РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ ПО ФИЗИКЕ

Аннотация

В статье изложены идеи по развитию у учащихся предметных компетенций путем решения задач по физике, организации решения задач на принципах последовательности, усложнения, последовательности и преемственности.

**Ключевые слова:** Физика, решение задач, компетентность, система задач, творческие способности, принцип последовательности и непрерывности, опыт, интеграция, навыки, компетенции, способности.

## DEVELOPMENT OF PRACTICAL COMPETENCE OF FUTURE ENGINEERS BASED ON SOLVING PROBLEMS IN PHYSICS

Annotation

The article presents ideas for developing students' subject competencies by solving problems in physics, organizing problem solving based on the principles of consistency, complication, consistency and continuity.

**Key words:** Physics, problem solving, competence, task system, creativity, principle of consistency and continuity, experience, integration, skills, competencies, abilities.

**Kirish.** Hozirgi davrda fizika fani keng qamrovli fan hisoblanadi, uning falsafa va bilish nazariysi bilan bevosita bog'liqligi, amalda qo'llanilish chegarasining kengligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy sog'lom shaxslarni tarbiyalab berish talablarini qo'ymoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Pedagog-tadqiqotchi A.Y.Danilyuk ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llashning xozirgi holatining tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda eng ko'p ishlab chiqilgan soha – bu ma'lum o'quv predmeti, didaktik mavzu yoki savol doirasida aniq o'quv materialini o'zlashtirish yo'lini tasvirlovchi o'qitish texnologiyasi hisoblanadi deb takidlاب o'tgan [1].

Oliy ta'limda kompetentlik: motivatsion, intellektual va amaliy jihatdan o'zini shakillantirish, irodaviy va hissiy jihatdan o'zini boshqara olishga asosiy e'tibor qaratilgan. Talaba o'z shaxsiy manfaatlari va imkoniyatlariga ko'ra faoliyat usullarini egallaydi, bu talabaga o'zida zamonaviy mutaxassisiga xos bo'lgan shaxsiy sifatlarini takomilashtirish, tafakkurini, madaniyatini va xulqini shakllantirishga yordam beradi [2].

N.N.Azizzodjayevaning pedagogika sohasida amalgalashuviga ishlardan hozirgi kun uchun dolzarb bo'lgan taklif va tavsiyalar takidlاب o'tilgan. Fan-tehnika taraqqiyoti va axborot globallashuviga jarayoni endilikda jamiyat oldiga yangi vazifalarini qo'ymoqda. Axborot va yangiliklarning tobora ortib borishi o'qitish jarayonida muammolarni ijodkorona hal eta oladigan barkamol shaxsmi yetishtirishni taqozo etib, fizika fanini o'qitish jarayonida quydigilar asosiy maqsad bo'lmog'i kerak:

o'qitilish jarayonida talabalarni bo'lg'usi kasbga tayyorlash;

talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish;

o'qitish jarayoning yangi shakllari va usullarini yaratish[3].

Fizika fanini o'qitishda masalalar yechish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Masala yechish fizika fanini o'qitish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi, masalalar fizik tushunchalarini shakllantirishga katta hissa qo'shadi, fizik fikrlarni rivojlantiradi, bilimni amalda qo'llay olish malakasini rivojlantiradi. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda masalalarning o'rni juda ahamiyatlidir. Masala yechish orqali talabalarning mehnatsevarligi, fikrashi, mustaqil mulohaza yuritishi, sinchkovligi, dunyo qarashi, o'qishga qiziqishi, xulqatvor, qo'yilgan maqsadga erishishdagagi qat'iyligi tarbyalanadi. Fizika fanidan masala yechish talabalarning dunyoqarashlarini shakllantirishga ijobji ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi talabalarga yangi mavzuni maruza qilishda, tushuntirishda va uni mustahkamlashda, o'tilgan mavzularni takrorlashda, talabalarning mustaqil ishlarida va bilimlarini sinab ko'rishda masala yechishdan foydalananadi.

**Asosiy qism.** Zamonaviy fizika fani o'qituvchisi bilimni talabaga tayyor holda taqdim etmasdan, zarur bilimni talabaning o'ziga izlab toptirish, dars jarayonini avval amaliyat, so'ngra nazariya tamoyiliga asosan tashkil etishi lozim. Aynan shunday darslar talabalarni fizika faniga oid bilimlarni kundalik hayotda ham qo'llay olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishini ta'minlaydi. Natijada, DTS asosida talabalarda fizika fani bo'yicha talabalarda fanga oid:

fizik hodisa va jarayonlarni kuzatish, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi;

laboratoriya ishlarini o'tkazish, fizik kattaliklarni o'lchash va xulosalar chiqarish kompetensiyasi;

fizik bilimlar va asboblardan amaliyatda foydalana olish kompeten-siyalariga erishish imkoniyati va talabalarning fizika fanini o'zlashtirish samaradorligi yuqori bo'ladi.

O'qituvchi dasturda ko'rsatilgan mavzhu bo'yicha mashg'ulotga tayyorlanib, masalalarni tanlaydi va ularni yechish ketma-ketligini tuzadi. Tanlangan masalalar sistemasi bir qator talablarni qanoatlantirishi kerak. Masalada tavirlangan jarayon

yoki hodisani ifodalaydigan kattalik va tushunchalar orasidagi bog'lanishning asta-sekin murakkablashib borishi asosiy didaktik talab hisoblanadi [4].

Fizika fani ayrim mavzulari bo'yicha mashq masalalari yechishdan boshlagan ma'qul hisoblandi. Shundan keyin jaroyon va hodisani xarakterlaydigan kattalik va tushunchalar orasidagi bog'lanishlar soni orib boradigan, ketma-ket tanlanadigan murakkabroq hisoblash, eksperimental va boshqa masalalar keladi.

Texnik mazmundagi kombinasiyalangan murakkablik darajasi yuqoriyoq, to'liq ma'lumotlarga ega bo'lmagan masalalar ma'lum mavzu bo'yicha tanlangan masalalar bo'lishi mumkin. Masalalar tanlashga ko'rsatilgan didaktik talabdan tashqari, o'qituvchi har bir masalani tanlashda mo'ljallagan rejani amalga oshirishi muhim ahamiyatga ega. Tanlangan masala talabalar bilimiini rivojlantirishga qandaydir hissasini q'shishi, kattaliklar orasidagi bog'lanishni tushunishni chuqurlashtirishi, tushunchalarini aniqlashtirishi va talabalarning boshqa ko'rinishlardagi darslarda yetarlicha aniqlanilmagan va chuqurlashtirilmagan yangi belgilarni olib berishi, olingen bilimlarni amalda qo'llashga o'rgatishi lozim. Masalani yechish metodikalari masalaning sodda yoki murakkabligiga, o'qituvchining qo'yan maqsadiga, talabalarning bilim darajasiga va boshqa sabablarga bog'liq hisoblandi.

Talabalarning ijodiy qobiliyatini oshirib borish uchun ularga bilim saviyasiغا mos keladigan, ijodiy xarakterdagи topshiriqlar berib turish kerak. Bunday ijodiy ishlarni murakkablashib borish ketma-ketligida berish maqsadga muvofiq. Masalan, mexanik harakatlarni bir-biri bilan taqoslash, ulardagи umumiylik va farqni aniqlash, bu harakatlarni amaliy ko'rsatib berish [5].

Fizikadan masalalar yechish orqali talabalarda kompetensiyalarni rivojlantirish metodining ayrim asosiy talablarini ko'rsatib o'tamiz. Umumiy fizika kursining barcha bo'limlariga tegishli bo'lgan masalalarni yechishning umumiy tomonlari bor va har bir bosh mavzularga tegishli masalalarni yechish metodikasining o'ziga xos tomonlari mavjud.

Biz masalalar yechishning umumiy ma'lumotlari haqidagi to'xtalasak.

Ma'lumki, har bir fizik masalani mazmuni barcha fizik hodisalarning, qonunlarning xususiy ko'rinishini ifoda etadi. Shu sababli talabalardan fizikaning qaysi bo'limiga tegishli sodda yoki murakkab masalami yechish uchun unga tegishli nazariy bilimlarni chuqur o'rganish kerak hisoblanadi. Qonunlarni, harakatlarni ifodalovchi formulalarni bilmay turib xech qanday masalani yechish mumkinmas.

Masalaning yechimi topishda, masalani bir necha bor diqqat bilan o'qishdan va mazmunini tushunib olishidan boshlanadi. Masala shartini o'qigandan darhol asosiy e'tiborni izlanayotgan kattalikkka qaratmaslik lozim va uni tezda topishga harakat qilmaslik kerak. Aksincha, masalalarda aks etayotgan fizik hodisalarni yaxshilab tushunib olish, bu hodisada yotgan fizik qonunlarni va formulalarni esga olinadi. Biror fizik kattalikni topish va zanjirni hisoblash kerak bo'lsa yoki tasvir chizish talab qilinsa, masalada qanday kattaliklar va shartlar berilganligini aniqlashtir kerak hisoblanadi. Masalaning ma'lumotlarini uning shartida berilgan tartibda yozib olish lozim. Agar masalaning shartida berilgan kattaliklar turli sistemalarda berilgan bo'lsa, ularni SI sistemasiga keltirish kerakdir.

Masalada chizma va zanjir berilgan bo'lsa, ularni diqqat bilan o'rganish, to'g'ri yozib olish lozim. Agar chizma va zanjir berilmagan bo'lsa, masalaning shartiga ko'ra fizik jarayonni ko'z oldimizga keltirib masalaning mazmuni to'liq aks ettiruvchi chizma tasvirlab olish yoki zanjir tuzishdan iborat.

Barcha bo'limlarga tegishli yana bir umumiy jihat shundaki, har bir bo'limga xos 54ursin boskichlarni bajarib bo'lgandan keyin olingen natijani tahlil qilib, to'g'riliqini tekshirib olish lozim. Olingen natijaning to'g'riliqiga ishonch hosil qilgach, hisoblashlarni bajarish kerak.

Masalalar yechishda harakatning ma'lum ketma-ketligini ko'rsatish mumkin.

3. Masalani yechish masala shartini o'rganishdan, qabul qilingan belgilarni yordamida berilganlarni qisqacha yozishdan

boshlanadi. Masala shartini o'rganish – bu masala mazmunida tavsiflangan hodisa yoki jarayonni ko'z oldiga yaxshilab keltirib olish deb hisoblandi.

2. Masalada so'z ketayotgan fizik jarayonlar va hodisalarni har tomonlama qarab chiqish – bu dikkatni eng jiddiy qaratish kerak bo'lgan bosh narsadir. Talabalar diqqatini shunga qaratish muhimki, mazmuniga, fizik kattaliklarga, jarayonning boshlang'ich va oxirgi holatini va ularni xarakterlaydigan kattaliklarni aniqlab olish kerak bo'ladi. Bu masala shartini aniqlab olishga, harfli belgilarga mos indekslarni qo'yishga imkon beradi.

3. Masalalar yechish muvaffaqiyatini aniqlovchi bosqich bo'lib, ushbu hodisa yoki jarayonni (aniqlovchi) tasvirlaydigan qonuniyatni (qonun, formula, qoida) topishdan va xotirada tiklashdan iborat.

4. Masalada hosil qilingan tenglamalar sistemasining aniqligini va tenglamalar sonining noma'lumlar soniga mos kelishish tekshirish, masala shartida berilganlarni zarur bo'lib qolganda qo'shimcha tenglamalar tuzish uchun foydalanimish, tenglamalar sistemasini umumiy ko'rinishda yechish va hisoblash formulasini hosil qilish.

5. Hisoblash va izlanayotgan kattaliklarning son qiymatini hosil qilish, masala javobini muhokama qilish.

6. Istalgan sifat yoki hisoblash masalaning yechimi (qanday shaklda ular berilmasin: grafik, eksperimental va xokazo...) fizik mazmunini tahlil qilishdan boshlanishi lozim. Ular orasidagi farq faqat masalani yechish usulida bo'ladi.

Fizik xossani mukammal tahlil qilish orqali yechiladigan masalalar talabalarning fikrleshini rivojlantirish va ularni bilimlarni qo'llashga o'rgatish uchun sifat masalalaridan kam ahamiyatga kasb etmaydi. Bu ko'rinishdagi masalalarning har biri o'z afzalliklariiga ega. Bazi masalalar hisoblash ishini talab etmaydi, tezroq va asoson yechiladi, shuning uchun ulardan foydaliniadi. Masalan, o'qituvchining yangi ma'lumotni bayon etishda, xonadagi talabalari bilan jamaoa suhbatida foydalaniishi mumkin. Biroq, hisoblash masalalari formulalar bo'yicha hisoblashlarga, birliklarning bir xil sistemalarda o'changan kattaliklarning qiyatlarini qo'yishga o'rgatadi. Fizik kattaliklarning haqiqiy qiyatlarini haqidagi talabalar tasavvurlarini hosil qiladi.

O'qitish amaliyotida masalalar yechishning rasmiylashtirishning ma'lum rasional usullari tarkib topgan. Masala sharti qabul qilingan belgilarni orqali ustun ko'rinishida qisqacha yozishadi va masala mazmunini muhokama qilishda ularning zarurligi aniqlangan hamma yetishmaydigan ma'lumotlar tajribadan topiladi yoki ma'lumotnomalardan topiladi va shu ustunga yozib qo'yiladi. Hamma ma'lumotlar yozilgandan keyin aniqlanilishi kerak bo'lgan kattalik yoziladi.

Masala. Biri misdan, ikkinchisi alyuminiyidan yasalgan ikkita silindrik simning uzunligi l va qarshiligi R bir xil. Mis sim alyuminiy simdan necha marta og'ir?

Berilgan.

$$\rho_1 = 1.7 \cdot 10^{-8} \Omega \cdot m$$

$$\rho_2 = 1.7 \cdot 10^{-8} \Omega \cdot m$$

$$d_1 = 8.6 \cdot 10^3 \frac{kg}{m^3}$$

$$d_2 = 2.6 \cdot 10^3 \frac{kg}{m^3}$$

$$l_1 = l_2 = l R_1 = R_2 = R$$

Yechilishi. Bu yerda  $d_1$  va  $d_2$  zinchlik. O'tkazgich qarshiligini hisoblash formulalari

$$R = \rho_1 \frac{l}{S_1} \text{ va } R = \rho_2 \frac{l}{S_2}$$

Bu yerda qarshiliklar tenglididan quydagi tenglikni olamiz

$$\frac{\rho_1}{\rho_2} = \frac{S_1}{S_2} \quad (1)$$

Endi massalar nisbatini soddalashtiramiz

$$\frac{P_1}{P_2} = \frac{m_1 g}{m_2 g} = \frac{V_1 d_1}{V_2 d_2} = \frac{l S_1 d_1}{l S_2 d_2} = \frac{S_1 d_1}{S_2 d_2} \quad (2)$$

(2) formulaga (1) formuladan  $\frac{s_1}{s_2}$  ning qiymatini keltirib qo'yqmiz va quydagi ko'rinishda bo'ladi

$$\frac{P_1}{P_2} = \frac{\rho_1 d_1}{\rho_2 d_2} \quad (3)$$

(3) formulaga qiymatlani qo'yib hisiblaymiz

$$\frac{P_1}{P_2} = 2.24$$

Bu masalani yechish orqali energetika muhandisligin yo'nalishidagi talabalar qaysi mahsulatdan foydalanish qulay sifatli va arzon tushini tahlil qiladilar.

Energetika muhandisligi yo'nalishidagi talabalarga umumiy fizika 55ursing elikrmagnitizim bo'limini o'tish orqali talabalarda kasbiga bo'lgan kasbiy kompetitligi oshadi. Muxtaxislikha kirish fanlari va mutaxassislikha oid fanlarini

o'rganishda fizika faning ro'li ahamiyatli. Fizika fani orqali talabalar boshlang'ich tushunchalarni mukammal o'rganadi.

Fizika fanini o'qitishda nazariy bilimlarni mustahkamlash lozim bo'ladi. Dastlab, talabaga nazariy savollar berib, uning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajasi tekshirib olish orqali yuqoridagi maqsadlarga erishish oson kechadi.

**Xulosa.** Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, fizika fanidan dars mashg'ulotlarida talabalarning masalalar yechishining o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, bu jarayonda talabalarning bilim olishga, ko'nikma va malakalari shakllanadi, ijodiy, tanqidiy fikrlash bilan birga fizik jarayon va hodisalarini kuzatish, tushunish va tushuntirish, tajriba sinovlari o'tkazish, fizik kattaliklarni o'lehash va xulosalar chiqarish kompetensiyasi rivojlanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Данилюк А.Я. Метаморфозы и перспективы интеграции в образовании / А.Я. Данилюк // Педагогика, №2, 1998 г. С. 8 – 12.
2. Шнейдер Л. Б. Профессиональная идентичность: теория, эксперимент, тренинг / Л. Б. Шнейдер // М.: МПСИ, 2004. – 335 с.
3. Saveliev I. V Umumi fizika kursi, II tom, T., "O'qituvchi", 1975.
4. Frish S.E, Timoreva A. B. Umumi fizika kursi, II tom, T, "O'qituvchi", 1972.
5. Хужанов Э.Б. Преподавание физики в общеобразовательных школах на основе статистического метода // Проблемы современного образования. - 2019. - №1. - С. 175-182.
6. Khujanov Erkin. Formation of Probability Physical Notions by Pupils on the Statistical Approach, Revista Geintec-gestao Inovacao e Tecnologias-Brazil, - Vol. 11 No. 3 (2021). – P. 1681-1688.
7. Djorayev M., Xuanov E. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi / O'quv qo'llanma – Toshkent. TDPU, 2021. – 248 b.